

CHOLG'U IJROCHILIGI TARIXINI TARBIYAVIY AHAMIYATI

*Andijon davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va musiqa ta'limi kafedrası" professor
vazifasini bajaruvchi Botirova Xilola Tursunbayevna*

ufckhabib94@gmail.com

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada cholg'u asboblarini takomillashuvi hamda ijrochilik amaliyotida ahamiyati yoritib o'tilgan. Cholg'u asboblarini takomillashuva uning rivojlanish tarixida ustoz olimlarning torli-chertma sozlarning tovush qatorlariga 12 bosqichli temperatsiyalashgan xromatik tuzilmalarni joriy etilishi yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** milliy musiqiy cholg'ular, ijrochilik mahorati, takomillashtirish, xromatik, nota sistemasi.*

***Аннотация:** В этой статье освещается совершенствование инструментов и их значение в исполнительской практике. Совершенствование инструментовки и история ее развития освещены внедрением учеными-мастерами 12-ступенчатой темперированной хроматической структуры в звуковые ряды струнно-щелевых звуков.*

***Ключевые слова:** национальные музыкальные инструменты, исполнительское мастерство, совершенствование, хроматика, нотная система.*

***Annotation:** this article highlights the improvement of instruments and their importance in performance practice. Refinement of instruments, and in the history of its development, the introduction of 12-stage tempered chromatic structures into the sound rows of string-clicking melodies of Master scientists is illuminated.*

***Keywords:** national musical instruments, performance skills, improvement, chromatic, note system.*

Ijrochilik tarixi haqida gap ketar ekan uning yaratilishi tarixi tomon yuz tutamiz. Shaxs rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadigan va madaniyatini yuksaltiradigan muhim omillardan biri musiqiy tarbiya hisoblanadi. Musiqa, jumladan, cholg'u asboblarini chalish insonda qalb go'zalligi, harakatlar muvofiqligi kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Musiqa insonni xush fazilatli, samimiy, ziyarak, ko'ngilchan, yuksak ahloq, madaniyat hamda ma'naviyat egasi qilib shakllantirishda katta imkoniyatlar taqdim etadi. Bundan tashqari.

musiqao'quvchilar ruhiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning eshitish qobiliyati, ko'rish xotirasi, tafakkuri va diqqati rivojlanadi. Insonning kamolga yetishida musiqaning o'rni taraqqiyotning barcha bosqichlarida yaqqol namoyon bo'lib kelgan. Boy musiqiy merosimiz, maqomlar va xalq qo'shiqlari bir necha asrlardan buyon xalqni ma'naviy yuksaltirishdek oliyjanob maqsadga xizmat qilib kelmoqda¹

O'quvchi-yoshlarni yoshiga qarab to'g'ri tarbiyalash, fanlarni musiqiy dars darslarini olib borishda va o'rgatishga ularning yoshligidanoq boshlash kerakligini uqtiriladi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy qadriyatlarimizga har qachongidan ham ko'ra ko'proq e'tibor berilayotgan va milliy musiqiy tarbiya, umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni ona-Vatanga cheksiz muhabbat, uni o'sishi, taraqqiyoti yo'lida harakat qiluvchi insonlarni tarbiyalab yetishtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

"Ma'lumki, har bir millatning milliy musiqiy cholg'ulari, xalqlarni musiqa madaniyatidagi eng noyob yodgorliklari sifatida qadrlanib kelingan. Xalq amaliysan'ati namunasi ko'rinishida betakror ustalar tomonidan yaratilib kelinayotgan musiqiy cholg'ular, davrlar osha avaylab-asralib kelingan. Eng muhimi bu jarayono'tgan davrning har bir zamonasiga mos holda takomillashib, rivojlanib kelingan." Barcha xalqlar qatorida o'zbek xalqi ham milliy qadriyatlari, an'analari negizidayuzaga kelgan musiqiy cholg'ulariga egadir.

O'zbek xalq musiqa cholg'ulari o'zining har tomonlama mukammalligi va rang-barangligi bilan boshqa xalqlarni cholg'ularidan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda, xalqlarning tarixiy rivojlanish jarayonlarida, xalqlarning o'zaro madaniy aloqalari, milliy ijodiyot rivojida bir-biriga bo'lganta'sirida umumiylik jihatlar bilan sug'orilgan yoki yaratilgan cholg'ularning hamamaliyotga kirib kelishi kuzatilgan. Bu borada o'zbek xalqi cholg'ularga boy xalq hisoblanadi. Chunki,

¹ Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
www.tadqiqotlar.uz

ijrochilik amaliyotimizda o'ndan ortiq: tanbur, dutor nog'ora, sato, g'ijjak, chang, qonun, rubob, nay, surnay, qo'shnay, karnay, va doyra kabihar tomonlama mukammal musiqiy cholg'ularimiz bor. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, musiqiy cholg'ular ham xalqimizning ma'naviy merosi sifatida ahamiyatga va qadimiy madaniyatiga egadir.

O.Toshmatovning "Ijrochilik san'ati tarixi" darsligida san'atning mashhur arboblari va murabbiy ustozlari haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tgan. Shu jumladan yirik musiqa cholg'ushunosi Ashot Ivanovich Petrosyansning o'zi turli musiqa cholg'ularini (skripka, do'mbri, balalayka, gitara) chalganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ashot Ivanovich Petrosyans Roza Lyuksemburg nomidagi tikuvchilik klublarida, Kashshoflar uyida xalq cholg'ulari havaskorlar orkestrlarini tashkil qilib, o'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik mahorati rivojini ancha yil sinchiklab o'rganadi. V.Marsinkovskiy, B.Gienko, G.Sobitov, S.Didenko, Sh.Shoakramov, A.Ashrapov, A.Dorosheev kabi ko'plab ijrochilarni tarbiyalaydi va kamolga yetkazadi.

V.Romanchenko, A.Kevxoyans, S.Didenko, U.Zuparov singari bir guruh ustalar o'zbek xalq sozlarini takomillashtirishdek murakkab vazifani hal etishga kirishadilar. Torli-chertma sozlarning tovush qatorlariga 12 bosqichli temperatsiyalashgan xromatik tuzilmalarni joriy etish, cholg'u asboblarning turdosh oilalarini yaratish, torli-kvintet, xromatik chang prinsipi bo'yicha ilk tajriba o'tkazadilar. Bularning hammasini Petrosyans o'zbek xalq musiqa asboblarida cholg'uchilik ta'limini umummaqbul nota sistemasiga muvofiq yo'lga qo'yish maqsadida amalga oshiradi.

A.P.Petrosyans butun hayoti va ijodiy yo'li davomida ijobiy qarashdagi prinsipial, o'zini o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirishning nazariy va amaliy muammolariga bag'ishlangan inson bo'lib qoldi.

A.Petrosyans hamkorligida zamonaviy ijrochilik talab darajasiga

moslashtirilgan barcha musiqiy cholg'ularning hamda yangitdan yaratilgan cholg'ular va ularning oilasining chizmalarini ishlab chiqqan. Shuningdek u "Musiqqa ustasiga yordam" (1955) nomli kitobning muallifidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1.] Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

[10.] Ixomov M. "Barkamol avlod tarbiyasida milliy musiqaning o'rni va ahamiyati". Zamonaviy ta'lim / sovremennoe obrazovanie 2016.

[11.] M.M.Axmetjanov, Sh.Sh. Olimov "Umumiy pedagogika"

[12.] Z Rasulova 2021 Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.

[13.] TURSUNBAEVNA, Botirova Xilola. COOPERATION OF TEACHER AND STUDENT ON MUSIC WORK. Erudio Journal of Educational Innovation, [S.l.], v. 7, n. 1, p. 36-47, apr. 2020. ISSN 2302-884X. Available at: <<https://erudio.ub.ac.id/index.php/erudio/article/view/341>>. Date accessed: 27 june 2022. doi:<https://doi.org/10.18551/erudio.7-1.3>.

[14.] Ботирова, Хилола. "The practice of applying pedagogical technologies in the learning process to playing the Chang instrument." Общество и инновации 2.3/S (2021): 330-339.

[15.] Tursunbaevna, Botirova Xilola. "New approach to vocal-choral skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1638-1654.

[16.] Tursunbaevna, Botirova Xilola. "Methods for Improving Thoretical Knowledge of Music of Elementary School Students." International Journal on Integrated Education 3.4: 4-10. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE/article/view/335>

[17.] Botirova, Khilola Tursunbaevna. "PERFORMANCE AND ART." mankind 3: 3-300. <https://theamericanjournals.com/index.php/tajssei/article/view/146>

[18.] Tursunbaevna, Botirova Hilola. "CREATIVITY-THE BASIS OF PEDAGOGICAL CREATION." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.12 (2019).

[19.] Tursunbaevna, Botirova Khilola. "The Importance of Aesthetic Education in the Formation of Performance and Creative Skills of Students in Music Lessons in Secondary Schools." JournalNX 7.05: 69-72

[20.] Botirova Khilola Tursunbaevna, & Vladimir Nojkov. (2022). PREPARING www.tadqiqotlar.uz

STUDENTS FOR ORCHESTRAL ACTIVITIES. Conferencea, 239-
241. Retrieved from
<https://conferencea.org/index.php/conferences/article/view/844>